

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 1 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР  
ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL  
SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

**Юлдашев Анвар Эргашевич** – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Мавланов Уктам Махмасабирович** – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Хазратқулов Аброр** – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

**Ҳакимов Назар Ҳакимович** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Яҳшиликов Жўрабой** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

**Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

**Хошимхонов Мўмин** – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

**Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна** – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Ахмедов Ойбек Сапорбаевич** – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

**Кўчимов Шуҳрат Норқизилович** – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

**Салаҳутдинова Мушарраф Исламутдиновна** – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

**Кучкаров Рахман Урманович** – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

**Юнусов Мансур Абдуллаевич** – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдов Улугбек Арипович** – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **ЮРИДИК ФАНЛАР:**

**Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Эсанова Замира Нормуротовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

**Зулфиқоров Шерзод Хуррамович** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

**Хайитов Хушвақт Сапарбаевич** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Асадов Шавкат Ғайбуллаевич** – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдуллаев Шахзод Алиханович** – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

### **ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

**Хашимова Дильдархон Уринбоевна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Закирова Феруза Махмудовна** – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;  
**Тайланова Шохидা Зайнисевна** – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Каримова Васила Маманосировна** – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Ҳайитов Ойбек Эшбоевич** – психология фанлари доктори (DSc), доцент. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузур Ҷавлат бошқаруви академияси;

**Умарова Навбаҳор Шокировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

**Атабаева Наргис Батировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Қодиров Обид Сафарович** – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиги.

#### **СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Латипова Нодира Мухтаржановна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

**Сеитов Азамат Пўлатович** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

**Содикова Шохидা Мархабоевна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **СИЁСИЙ ФАНЛАР**

**Назаров Насриддин Атакуллович** –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура курилиш институти;

**Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич** –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иктисадиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси хисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шахри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

#### **Электрон манзил:**

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## МУНДАРИЖА

### ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Шаисламова Наргиза Кабиловна*  
КОРХОННИНГ КРЕДИТГА ЛАЁҚАТЛИЛИГИНИ БАҲОЛАШ РИСК  
ДАРАЖАСИНИ ПАСАЙТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ..... 7-20

- Mavru洛va Nilufar Abduxalilovna*  
TIBBIY SUG'URTA: AMALDAGI TURLARINI RIVOJLANTIRISH VA MAJBURIY  
TURINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI ..... 21-29

### ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

- Маматқулов Давлатжон Махаматжонович*  
ИСЛОМ ФОЯЛАРИНИ ЎРТА ОСИЁГА КИРИБ КЕЛИШ ТАРИХИ ВА УЛАРНИНГ  
МАФКУРАВИЙ ЖАРАЁНЛАРГА ТАЪСИРИ ..... 30-36

- Umarjonov Sohibjon Soyibjon o'g'li*  
IBN SINONING "ISHORALAR VA TANBEHLAR" ASARI VA POSTKLASSIK ISLOM  
FALSAFASINING BOSHLANISHI ..... 37-50

### ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

- Ahmedov Oybek, Tilavova Malika*  
SEMANTIC STRUCTURE OF WORDS RELATED TO EDUCATION IN  
ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ..... 51-62

- Ашуррова Ситора Эркиновна*  
ВАЖНОСТЬ КОМПЬЮТЕРОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВ ..... 63-69

### ЮРИДИК ФАНЛАР

- Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи*  
СУДНИНГ ҲУҚУҚНИ ШАРҲЛАШ ҲУЖЖАТЛАРИ КОНСТИТУЦИЯВИЙ  
НАЗОРАТ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА ..... 70-77

- Авезова Элеонора Параҳатовна*  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИГА ҚАБУЛ  
ҚИЛИШНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ ..... 78-86

- Ахмедова Шахноза Озоджоновна*  
СООТНОШЕНИЕ ОЦЕНКИ ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И  
ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ..... 87-95

### ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Tashpulatov Farxad Alisherovich*  
GANDBOLCHILAR O'YIN FAOLIYATI SAMARADORLIGINI HAR TOMONLAMA  
BAHOLASH METODIKASI ..... 96-104

<i>Парманов Абулқосим, Абдурашидова Мавжуда</i>	
ЎҚУВЧИЛАРДА ТЕСКАРИ ФУНКЦИЯ ТУШУНЧАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСУЛИ ҲАҚИДА .....	105-110
<i>Hamrayeva Zuhro Bahodirovna</i>	
BOLALARNI GO'DAKLIK DAVRIDAN SUZISHGA O'RGATISH ORQALI JISMONIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH .....	111-119
<i>Тўрабоева Мадинахон Рахмонжон қизи</i>	
ТАЛАБАЛАРНИНГ ШАХСИЙ-КРЕАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЎҚУВ ЛОЙИХАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ .....	120-126
<i>Абдурахмонова Сайёрахон Шахобидиновна</i>	
АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ – БЎЛҒУСИ ТАРБИЯЧИЛАРИДА КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА .....	127-135
<i>Shermatov Gulom Kaxxorovich</i>	
“5-1” HIMOYASINI BAJARISHDA GANDBOL O'YINCHILARINING TAKTIK O'ZARO TA'SIRI .....	136-143

*Фалсафа фанлари*

**Umarjonov Sohibjon Soyibjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi tayanch doktoranti

## **IBN SINONING “ISHORALAR VA TANBEHLAR” ASARI VA POSTKLASSIK ISLOM FALSAFASINING BOSHLANISHI**



<https://doi.org/10.47390/1342V3I1Y2023N4>

**Annotation.** Ushbu maqolada musulmon Sharqida ilm-fan, falsafa va ilohiyotga oid munozaralarning markaziga aylangan Ibn Sinoning “Ishoralar va tanbehlar” asari va bu asarga yozilgan sharhlar bo'yicha ilmiy taqdriqotlar olib borgan yevropalik bir qator sharqshunoslar, jumladan, Maykl Rapoport, Ayman Shihadeh, Visnovskiy, Van Lit kabilarning fikr-mulohazalari muhokama qilinadi. Ularning asarlaridagi o'ziga xos jihatlar misollar orqali dalillanadi.

**Tayanch so'zlar:** “Tahafut”, “Tanazzul nazariyasi”, tahqiq, muhaqqiq, aporetik va tafsiriy sharhlar, shakk, shukuk, hoshiya yoki taliqa, muhtasar yoki mulahhas.

**Умаржонов Сохибжон Сойибжон угли**  
Ташкентский государственный экономический университет  
докторант социально-гуманитарного факультета

## **ТРУД ИБН СИНЫ «УКАЗАНИЙ И ЗАМЕЧАНИЙ» И НАЧАЛО ПОСТКЛАССИЧЕСКОЙ ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ**

**Аннотация.** В данной статье труд Ибн Сины «Указаний и замечаний», ставший центром научных, философских и богословских дискуссий на мусульманском Востоке и обсуждаются мнения ряда европейских востоковедов, в том числе Майкла Рапопорта, Аймана Шихаде, Висновского и Ван Лита, проводивших научные исследования комментариев, написанных к этому труду.

**Ключевые слова:** «Тахафут», «Теория кризис», тахкик, мухаккик, апоретические и экзегетические комментарии, шакк, шукук, хошия или талика, муҳтасар или мулаҳҳас.

**Umarjonov Sokhibjon Soyibjon ugli**

Tashkent State University of Economics

Doctoral student of the Department of Social Sciences and Humanities

## **THE WORK OF IBN SINA "POINTERS AND REMINDERS" AND THE BEGINNING OF POST-CLASSICAL ISLAMIC PHILOSOPHY**

**Abstract.** This article discusses Ibn Sina's work "Pointers and Reminders", which has become the center of scientific, philosophical and theological debates in the Muslim East and the opinions of a number of European orientalists, including Michael Rapoport, Ayman Shihadeh, Wisnovsky, and Van Lit, who conducted scientific research on the comments written on this work.

**Keywords:** "Tahafut", "Theory of decline", tahqiq, muhaqqiq, aporetic and exegetical comments, shakk, shukuk, hoshiya or talika, muxtasar or mulahhas.

### **Kirish.**

Qadimiy tariximiz va madaniyatimizni, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning ilmiy, ma'naviy va ma'rifiy merosini o'rganish, keng targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa, yoshlarni har tamonlama barkamol etib tarbiyalash, ularni vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida ulg'aytirish muhim masala bo'lib qolmoqda. Muqaddas zaminimizdan yetishib chiqqan allomalar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini chuqur tadqiq etish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yish, bugungi murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini oolib berish zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Olmazor tumanidagi Imom Termizi jome masjidiga qilgan tashrifi davomida bir guruh nuroniyalar bilan suhbatda bu borada quyidagi fikrlarni ta'kidlagan edi: "Biz baxtiyor avlodmiz, baxtli xalqmiz, chunki shunday buyuk ajdodlarning vorisimiz"[1]. Biz ulug' mutafakkirlarimiz bilan haqli ravishda faxlanamiz. Bunday yuksak iftihor tuyg'usi bilan hech kimdan kam bo'limgan xalq sifatida faxr bilan yashashga, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishga da'vat etadi.

XIX asr oxirlaridan boshlab musulmon jamiyatlarining ilg'or tarixchilarini XII asrdan keyin ilm-fan va sivilizatsiyaning tanazzulga uchray boshlaganligi haqidagi masalani ilgari surdilar, ammo bu fikr isbotlanmagan. Taxminan to'rt asrlik ilm-fanning ravnaqidan so'ng (800-1200 yillar) "Tanazzul davri" deb qaralgan XII asrdan keyingi davr musulmon dunyosida ilmiy tadqiqotning postklassik davri boshlanishini anglatadi (taxminan 1200-1800 yillar). Musulmon mutakallimlari va faylasuflarini tabiiy antagonistlar sifatida tariflash, falsafa ustidan dogmatik teologiyaning g'alabasi tanazzulning belgisi sifatida asos qilib olinadi. Bu g'alabaning eng yorqin namunasi

sifatida ilohiyotshunos Abu Homid G’azzoliy (v. 1111)ning “Faylasuflarni rad etish” (Tahafut al-falosifa) asarini ko’rsatishadi. (Treyger “tahafut” ning tarjimasini Moris Bauygesning “Tahafut” ning tanqidiy nashridagi farazlariga asoslangan holda “mantiqsizlik, o’z fikrini ifodalay olmaslik” sifatidagi tarjimasini ilgari suradi. Bu atama Treygerning fikricha, shoshqaloqlikni anglatadi. Treyger o’zining “O’zgacha bilim” (Inspired knowledge) asarida buni quyidagicha ifodalaydi: “G’azzoliyning fikricha, faylasuflarning aniq va puxta o’ylanmagan da’volarni ilgari surishlari apodeiktik dalilga ega bo’lmagan asossiz xulosalarga shoshilishlaridir. “Maykl Rapoport ham o’z tadqiqotlarida G’azzoliy va Ibn Rushd asarlariga murojaat qilganda, “Tahafut” atamasini Treyger yondashuvi asosida “shoshqaloqlik” sifatida keltiradi.) [2;1] Ushbu asarda G’azzoliy faylasuflar ilgari surgan 20 ta yondashuvni tanqid qiladi, ulardan uchtasi murtadlik, dinga shirk keltirish sifatida baholagan va bunday fikr egalarini o’limga mahkum qilish kerakligini ta’kidlagan. [3] Tanazzul hodisasi tarafdarlari buni faylasuf Ibn Rushdning barcha sa’y-harakatlariga va G’azzoliyga javob sifatida yozgan “Raddiyani rad erish” (Tahafut al-tahafut) asariga qaramay falsafa hech qachon tiklana olmaydigan zarba deb bilishgan.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Abu Homid G’azzoliy tanqidining e’tibor markazida Shayx ul-rais hisoblangan faylasuf Ibn Sino o’rin olgan edi. Falsafa, tibbiyat, mantiq va boshqa ko’plab fan sohalariga doir asarlar yaratgan Ibn Sinoning so’nggi asari “Ishoralar va tenbehlar” (al-Isharot val-tanbihat) postklassik davrning dastlabki bir necha asrlarida eng keng muhokama qilingan va ko’plab bahslarga sabab bo’lgan. Olimlar “Ishoralar” ning sharhini yorqin izohlar bilan keng miqyosda tafsir qildilar. Shu nuqtai nazardan “Ishoralar” ning eng taniqli ikki sharhlovchisi – Fahriddin Roziy (v. 1210) va Nosiriddin Tusiy (v. 1274) lar mutakallim va faylasuf sifatida G’azzoliy va Ibn Rushdlarning teologik qarashlarini qayta ko’rib chiqdilar. Misol uchun tadqiqotchi Chittik o’zining “Ilk islom tarixida tasavvufga qarshi falsafa” (“Mysticism versus Philosophy in Earlier Islamic History”) asarida odatiy izohni takrorlaydi: “G’azzoliy va Fahriddin Roziylarning hujumlari natijasida bir necha yillar davomida obro’sizlangan Ibn Sino qarashlarining ahamiyati XIII asrda Nosiriddin Tusiyning falsafiy asarlari... Ibn Sino ta’sirini jonlantirdi.” [2; 2] Nikolas Hir esa Roziy va Tusiyning Ibn Sinoning emanatsiya nazariyasiga oid sharhlarini muhokama qilishdan oldin odatiy izohni qisqacha bayon qiladi: “Ar-Roziy ash’ariy ilohiyot olimi sifatida yozar ekan, o’z sharhining katta qismini xuddi G’azzoliy kabi Ibn Sinoning falsafiy ta’limotini tanqid qilishga bag’ishlagan. Tusiy Roziydan keyin bir necha yil o’tib faylasuf sifatida o’z sharhlarining ko’p qismini Roziyning tanqidlariga javob berishga va Ibn Sino ta’limotlarini himoya qilishni o’z burchi deb bildi” [4; 111].

Garchi “Tanazzul nazariyasi” butun XX asr davomida hukmronlik qilgan bo’lsada, u oxir-oqibat asossiz da’volarga nisbatan katta bosim ostida barbod bo’ldi. Hozirda bir ovozdan tanazzul davri haqidagi jarayonlarni rad etishda olimlar o’xshash manbalarni qayta ko’rib chiqishmoqda va postklassik islom ilmlarining tafsiriga asoslangan ma’lumotlarni yig’ishmoqda va yangilarini izlamoqdalar. Bu qayta tahlil ikki jihatga: G’azzoliy, uning “Faylasuflarni rad etish” va “Ishoralar” ning sharhiga qaratildi. Richard Frenk G’azzoliyning barcha falsafiy yondashuvlarga tabiiy ravishda qarshi bo’lgan mutakallim sifatidagi keng tarqalgan fikrlariga qarshi chiqdi [5, 6]. Frenk Griffel esa o’z tadqiqotlarida G’azzoliyning “Faylasuflarni rad etish” asaridagi maqsadi falsafani qoralash yoki ayplash emas, balki shunchaki Ibn Sino boshchiligidagi faylasuflar o’zlarining barcha risolalarida, ayniqsa metafizika borasida isbotlovchi dalillar (*burhan*) keltirish haqidagi da’volariga amal qilmaganliklari ekanligini ta’kidlaydi. Fahriddin Roziyning “Ishoralar”<sup>1</sup> sharhiga bag’ishlangan Ayman Shihadehning tadqiqotida ta’kidlaganidek, ushbu asar G’azzoliy boshlagan falsafaga qarshi an’ananing davomi sifatida emas, balki uni o’ziga hos sharoiti jihatidan o’rganish kerakligi, Roziy an’anaviy tanazzul davriga nisbatan ancha farqli mutafakkir ekanligini ko’rsatadi.[7] Shuningdek Nosiriddin Tusiyning “Ishoralar”ga yozgan sharhini sinchiklab o’rganish natijalari, u har doim ham Avitsennaizmning sodiq sharhlovchisi va tarafdoi bo’limganligini ko’rsatadi. [2;3, 8, 9, 10]

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ilmiy tadqiqotning sifati va natijasi izlanishda qo’llaniladigan vosita va usullarga bog’liq. Shu bois, fanda tadqiqot vositalari, texnologiyasi va usullariga e’tibor har doim katta bo’lgan. O’rganilayotgan ob’ekt qanchalik murakkab bo’lsa, uning xossalari va qonuniyatlarini ochish uchun qanday vosita, asos yoki usulni ishlatish masalasi dastlab hal qilinishi kerak bo’lgan metodologik muammoga aylanadi. Mazkur muammo xususida mulohaza yuritish metodologiyani, ya’ni, metodologik bilim darajasini (qatlamenti) tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsadi Ibn Sinoning “Ishoralar va tanbehlar” asari va unga yozilgan sharhlar muhokama qilingan. Tadqiqot davomida sharh subjanriga doir Sharq mutafakkirlarining asarlari uslubi, turli xil yondashuvlari, pozitsiyalari Yevropaning yetakchi sharqshunoslari tomonidan yozilgan ilmiy asarlar va maqolalarni o’rganish davomida ilmiy bilishning analiz va sintez, tarixiylik, mantiqiylik, dialektik metodlardan foydalangan holda mavzuda qo’yilgan muommoni yechishga harakat qilindi. Shuningdek O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik

<sup>1</sup> Ma’lumot uchun: Fahriddin al-Roziyning “Ishoralar va tanbehlarga sharh” asarining qo’lyozma nusxasi O’zR FA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fo’ndida 4957/1, 4957/2 inventar raqamlari ostida saqlanadi. Ushbu qo’lyozmalar arab tilida, nastaliq yozuvida ko’chirilgan. Birinchi qismi 18 (1b-18b), ikkinchi qismi esa 253 (19a-271b) sahifani tashkil etadi. Fahriddin Roziyning qo’lyozma asarlari haqida ma’lumot olish uchun: Umarjonov, S. (2022). Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy asarlarining qisqacha sharhi. Imom Buxoriy saboqlari, 1, 24-25.

instituti qo'lyozmalar fonda, kutubxona fonda, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nodir adabiyotlar va qo'lyozmalar bo'limi kutubxonalarida kutubxona metodidan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar.**

Postklassik islom falsafasini davrining dastlabki asrlari Ibn Sinoning "Ishoralar va tanbehlar" asarini sharhlash an'anasi boshlanganligi bilan xarakterlanadi. Bu an'ana 1037-yilda Ibn Sino vafotidan so'ng bir necha avlodlar orasida boshlangan. Shuni aytishimiz mumkinki, Sharofiddin al-Mas'udiyning (v. 1204-yildan oldin) "Ishoralar va tanbehlarga tekshiruv va e'tirozlar"<sup>1</sup> deb nomlanadigan asari bilan boshlangan sharh an'anasi tez sur'atlarda bir necha asrlar mobaynida davom etgan edi. Nafaqat Ibn Sino merosi, balki "Ishoralar" ga sharhlar musulmon Sharqida ilm-fan, falsafa va ilohiyotga oid munozaralarning markaziga aylantirdi. Ibn Sino asarlari orasida "Ishoralar" XVI asrgacha olimlar e'tiborini tortgan asar hisoblangan. Hozirda "Ishoralar" ga 32 ta sharh ma'lum (ba'zilari qisman sharhlangan). Ushbu sharhlarning ro'yxati Visnovskiy tomonidan tuzilgan va "XI-XII asrlar Islom Sharqidagi mohiyat va mavjudlik" ("Essence and Existence in the Eleventh- and Twelfth-Century Islamic East"), "Ibn Sinoning islomga munosabati" ("Avicenna's Islamic Reception") kabi asarlarida o'z aksini topgan. [2;4] Shu o'rinda "Ishoralar" asarini allomaning shox asari hisoblangan "Shifo" (Kitab al-shifo) bilan taqqoslaydigan bo'lsak, bu asardagi falsafiy xulosalarning yarmidan ko'piga ma'lum darajada sharhlar mavjud bo'lib, ular XVI asrgacha doimiy sharhlar mavzusiga aylanmagan (garchi XIV asrda unga yagona sharh yozilgan bo'lsa ham). [11;193-4] Boshqa ko'plab olimlar ta'kidlaganidek "Ishoralar" asari katta e'tiborni jalb qilgani ajablanarli emas. [12;203, 13;382-83, 14;32, 7;306-7, 15;327] "Shifo", "Najot" (Kitab al-najot) va "Falsafa unsurlari" (Uyun al-hikma) kabi asarlarining sodda tilidan farqli ravishda "Ishoralar" ning lo'nda va jumboqli mohiyati ham lug'aviy ham nazariy sharhiga chorlaydi va agar xohlasa Ibn Sino falsafasini qabul qilishni o'z xohishiga ko'ra shakllantirish imkoniyatiga yo'llib ochib beradi. [11;199, 15;328] (Biroq, barcha olimlar ham "Ishoralar" ga nisbatan berilgan bunday tarifga qo'shilmaydilar. Leyman o'zining "Inoti, Ibn Sino va tasavvuf sharhi" (Review of Inoti, Ibn Sina and Mysticism) asarida qanday qilib uzoq sharhlash tarixi "Ishoralar" ga bog'lanib qolganiga hayron bo'lib, asar birinchi o'qishdayoq falsafiy psixikaning to'g'ridan-to'g'ri bayoni sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi Zari esa "al-Isarat" asarida uning tilini "ixcham iboralar va yoqimli tushuntirish" (va-ihtiva'uhu 'ala 'ibdratin mujizotin va-baydnin 'adbin) dan tashkil topganligi bilan tavsiflaydi. Haviy "Ibn Sino va tasavvuf" asarida ta'kidlashicha, "uning uslubida hayajonli,

<sup>1</sup> To'liqroq ma'lumot berilgan. Shihadeh, Ayman. Doubts on Avicenna: A Study and Edition of Sharaf al-Din al-Mas'udi's Commentary on the Isharat. Islamic Philosophy, Theology and Science. Texts and Studies 95. Leiden, Boston: Brill, 2016.

dinamik va yorqin soddalik siyrak metaforalar mavjud va unda muhokama qilingan mavzularni to'g'ridan-to'g'ri tushunishga to'sqinlik qiladigan ramzlar yoki jumboqlar deyarli yo'q".) [2;4] Ibn Sinoning falsafiy g'oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va yangi natijalar bilan boyitildi. [16;46]

G'azzoliy "Faylasuflarni rad etish" asarida faylasuflarni tanqid qilganidan so'ng musulmon olamidagi zalolatga yuz tutgan intellektual faoliyatning ahvolini tasdiqlovchi jarayonni tanqidiy qayta ko'rib chiqishni so'nggi yillardagi olimlar boshladilar. Shu bilan birgalikda olimlar sharhlarni emas faqat asl manbalardagi tushunchalarni, farazlarni qayta ko'rib chiqishni boshladilar, ehtimol ular dolzarb, o'rganishga loyiq bo'lgan innovatsion g'oyalarni o'z ichiga olishi mumkin. [2;5] Ibn Sino vafotidan keyin asrlar davomida doimiy sharhlar markazi sifatida "Ishoralar" ning maqomini hisobga olsak, postklassik falsafiy sharhlardagi dastlabki ilmiy tadqiqotlarning bu asarga katta e'tibor qaratilganligi ajablanarli emas. Ushbu tadqiqotlarning asosiy maqsadi asar sifatidagi sharhlar va ilmiy faoliyat sifatidagi sharh haqida gapirganimizda biz aynan nazarda tutgan narsani aniqlash hisoblanadi. Bu yerda falsafiy sharhga ikki yondashuv alohida e'tibor talab etiladi. Birinchisi Visnovskiy, ikkinchisi Shihadeh. Ikkalasi ham "Ishoralar" ning sharhlash an'analariga e'tibor qaratgan bo'lsada ularning yondashuvlari sharhlarga kengroq qo'llanilishini nazarda tutadi.

Visnovskiy falsafiy sharh asarini *tahqiq* spektriga kiruvchi keng ko'lamli vazifalarni o'z ichiga olgan holda tasvirlagan va u so'zma-so'z "tekshirish" ma'nosida tarjima qilgan.[17] U bu to'plam tarkibiga quyidagi 7 funksiyani kiritadi:

1. Qo'lyozmalarni to'plab tahlil qilish asosida so'z va iboralarni muqobil tushunchasini taqdim qilish;
2. Mualliflar, sarlavhalar, bo'lim va boblarga iqtiboslar va havolalar manbalarini aniqlash;
3. Qiyin so'zlarga izoh berish;
4. Manba matnidagi isbotlanmagan masalalarga yangi dalillarni taqdim qilish;
5. Dalillarning hukmini yoki bu dalillardagi ma'nolar hukmini o'zgartirish, zaif dalillarni tanqid qilish va/yoki qayta ko'rib chiqish;
6. Manba matni muallifi tomonidan yoki manba matni muallifi va boshqa mualliflar o'rtasidagi manba matni va boshqa matnlar o'rtasidagi nomuofiqliklarni uyg'unlashtirish;
7. Manba matnidagi zaiflashgan tushunchalarni bartaraf qilish va ularni boshqalariga almashtirish.

Visnovskiy jarayonlarning hammasi ham kerak emasligini yoki biron bir sharh asarida ko'rmasligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, u olimlar falsafiy sharhlash vazifasini qanday tushunganliklarini ushbu jarayonning ba'zilarini boshqalaridan qanchalik ustun qo'yganliklarini o'rganish orqali yaxshiroq tushunishimiz

mumkinligini qo'shimcha qiladi. Misol tariqasida u Roziy va Tusiy larning "Ishoralar" ga sharhlarini keltiradi. Roziy nazarida sharhlovchining (ya'ni *tahqiq* bilan shug'ullanuvchi *muhaqqiq*) vazifasi manba matnida keltirilgan nazariyalarni diniy aqida yoki yo'naliishga sodiqlikni hisobga olmasdan keng qamrovli, doimiy tanqidiy tahlilga bo'yundirish hisoblanadi. Bunday yondashuv, albatta yuqoridagi ro'yxat bo'yicha beshdan yettingacha bo'lган funksiyalarni oldingi o'ringa qo'yadi lekin u albatta boshqalarini istesno qilmaydi. Bu manba matnida keltirilgan ma'lumotlarni tasdiqlashga yoki ularni rad etishga olib kelishi mumkin. Tusiy esa sharhlovchining vazifasini manba matnida keltirilgan nazariyalarni to'g'ri, aniqlik bilan tushuntirish, himoya qilish va kerak bo'lganda ularni mustahkamlashdan iborat deb tushunadi. Bunday holatda ta'limot yoki tafakkur matabiga sodiqlik va uni himoya qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. [17;371-73]

Visnovskiy sharhning ahamiyatini yoritib berish bilan birgalikda "Ishoralar" ga sharhlarni sinflarga ajratishni ham taqdim etib, ularni "muammoli sharhlar" va "tizimli sharhlar" ga ajratadi. [11;198-99] Muammoli sharhlarga misol sifatida Mas'udiyning "Ishoralar va tanbehlarga tekshiruv va e'tirozlar" asarini muhokama qiladi. Mas'udiyning maqsadi "Ishoralar mazmunini tizimli va keng qamrovli sharhlash emas edi. Aksincha u asarni o'rganayotganda duch kelgan muayyan muammolar (*masala*) va zaif tomonlariga urg'u berish kabi tor maqsadi bo'lgan." [11;195] (Mas'udiylar sof falsafa va metafizikaga oid o'n beshta muammoni ko'rsatadi. Ularning har biri haqida qisqacha ma'lumotlarni A. Shihadehning "Ibn Sinodagi shubhalar" (Doubts on Avicenna) asarida berilgan) Visnovskiy bu yondashuvni Roziyning tizimli sharhiga qarama-qarshi qo'yadi. [11;199] (Visnovskiy shuningdek Amidiy va Tusiy sharhlarini ham tizimli sharh sifatida eslatib o'tadi.) Roziyning sharhi Mas'udiynikidan farq qiladi, chunki u "Ishoralar" ga to'liqligicha murojaat qiladi va bu jarayonda Roziy to'liq manba matnini tekshirish uchun keltirilgan fikr sifatida takrorlaydi. [17;366] Eng muhimi bu sinflashtirish nuqtayi nazaridan Roziy Ibn Sino falsafasini o'zi uchun maqbul deb topadigan tarzda tizimlashtirdi.<sup>1</sup> Boshqacha aytganda "Ishoralar" ning Roziy va boshqa tizimli sharhlovchilari Ibn Sino falsafasiga, uning e'tiqodiga ko'proq mos keladigan shakl va mazmun berishni maqsad qilgan (masalan mohiyat va mavjudlik o'rta sidagi munosabat haqida). Sharhlarning maqsadlari, natijalari va tipologiyasi haqidagi da'volari asosli yoki aksincha ekanligini ko'rish kerak. Mas'udiyning "Tekshiruvlar" i Shihadeh tomonidan so'nggi yillarda nashr etilgan tanqidiy nashrida Visnovskiyning tipologiyasiga muqobilini taqdim etdi. Uning muqobili "aporetik", "shubhali" (*shakk*) va "tafsiri sharhlar" (*shark, tafsir*) o'rta sidagi

<sup>1</sup> Izoh uchun. Maykl Rapoportning "The Life and Afterlife of the Rational Soul: Chapters VIII-X of Ibn Sina's Pointers and Reminders and Their Commentaries" nomli doktorlik dissertatsiyasi 6 va 7-boblarida Ibn Sino falsafasini Ash'ariylar ilohiyotiga ko'ra Roziy ma'qul deb topmagan ma'lum diniy qizil chiziqlarni (taqiqlarni) kesib o'tishni tushungan jihatlar edi; Bularga Xudoning tanlovi va uning (Ibn Sinoning) ijodiy faoliyatidagi iroda erkinligi va Xudoning keyingi hayotdagi mukofot/jazo va'dasi kiradi.

farqlarni ajratadi. [18] Shihadehning qayd etishicha, o'zining va Visnovskiy tasniflarining farqi shundaki, Shihadeh sharhlash funksiyasini, Visnovskiy esa sharhlash qamro'vini muhimlik darajasiga ko'ra oldingi o'ringa qo'yadi. [2;8] Shihadehning ta'kidlashicha, Mas'udiy o'zining "Tekshiruvlar" asarini yozgan vaqtgacha, aporetik sharhlar "allaqachon kichik bo'lib qolgan edi ammo arab fani va falsafasida obro'li, ko'p qo'llaniladigan subjanr bo'lgan edi." Ushbu subjanrning ikkita eng muhim namunasi sifatida Shihadeh Abu Bakr al-Roziyning "Tabiblarning eng mashhuri Galenning qarashlarida muammolarning ko'tarilishi" (*al-Shukuk ala kalam fadil al-attibba Jalinus*) va Ibn al-Haytamning "Ptolomeyda shubhalar" (*al-shukuk ala Batlimus*) asarlarini ta'kidlaydi. [18;45]

Shihadehning aporetik sharhlar tafsifi shakk (ko'pligi: *shukuk*) atamasining ma'nosiga qaratilgan bo'lib, bu atamaga u biroz nomuvofiq tushuncha beradi. U birinchi navbatda "shakk" terminini "nisbatan tor doirada va tasiri cheklangan muammo yoki e'tirozni anglatadi" [18;45] deb taklif beradi, ammo keyinchalik bu tor va cheklangan muommolar "ko'pincha fundamental nazariy tizim tamoyillari jiddiy va shubhali tanqid qilinadi." [2;8] Aporetik shukuk sharhlarda ko'tarilgan muammolarning tor va cheklangan mohiyati Shihadehning aporetik sharhlar va raddiyalar o'rtasidagi farqning kaliti hisoblanadi.

Shunday qilib bu nomuvofiqlik uning aporiyani sharhlash subjanri ekanligi haqidagi argumenti va tavsifida jiddiy zaiflik hisoblanadi. (Shuni aytib o'tish kerakki, bu nomuvofiqlik A. Shihadehning "Ibn Sino "Ishoralariga" Ar-Roziyning (vaf. 1210) sharhi" maqolasida aporetik sharhlarning muhokamasi berilmagan, bu asarda faqatgina muallif manba matnidagi qoniqarsiz "katta va kichik" mulohazalar sifatidagi aporiylarni [*shukuk*] tariflaydi.)

Uning tavsifiga qaytadigan bo'lsak, e'tirozlar aporiya muallifidan yoki muallif o'zining aporetik sharhini yozish uchun ishlatadigan boshqa birovdan kelib chiqishi mumkin. Dastlab Shihadeh aporetik sharh masalasining muallifini "ma'lum bir fan sohasi doirasidagi asosiy tizimning poydevorini qo'yish uchun doim mas'ul bo'ladi" [18;44] deb ta'kidlaydi. Aporetik sharh muallifi ham shu sohaning insayderi bo'ladi ammo yozish jarayonida tabiiy ravishda xatolikka duch keladi. Ushbu xatolik cheklangan muommolar to'plami bilan chegaralanganligi sababli bu aniqlik tizimiga qarshi harakatga olib kelishi mumkin ammo "u bu sohani butunlay vayron qilishga xavf soladigan keng qamrovli qarshi harakatni boshlamaydi."<sup>1</sup>

Tafsiriy sharhga kelsak, Shihadehning ta'kidlashicha, uning asosiy xususiyati keng ko'lamli iqtiboslar va manba matnini ko'rsatishdir, lekin sharhning boshqa

<sup>1</sup> Izoh: G'azzoliyning "Tahafut al-filosifa" asari falsafa qonunlarini shubha ostiga qo'yan holda (aftidan) muammolarning cheklangan to'plamiga e'tibor qaratishini hisobga olsak, Shihadehning aporetik sharhlarga bo'lган nuqtai nazariga kuchli qarama-qarshi misol bo'lishi mumkin. Shihadeh "Tahafut"ni rad qilish (radd) deb tasniflash orqali bu e'tirozdan ochadi va u keng qamrovi tufayli aporetik sharhdan ajratib turadi.

vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilmaydi. Tafsifiy sharhlarning subjanri aporetik sharhlardagi muommolarga yechim beradigan super sharhlardan iborat, bunday super sharhlar “yechimlar” (*hall*) yoki “javoblar” (*javab*) ko’rinishidagi asarlarda aniqlik kiritiladi. Bu javoblar manba matnini qayta talqin qilish yoki manba matnida ishlab chiqilgan tizim komponentlarini takomillashtirish va rivojlantirishni o’z ichiga olishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan Roziyning Mas’udiy “Tekshiruvlar” iga javobi - oddiygina “Javoblar” (*Javabat*), Amidiyning “Xato ma'lumotlarni fosh qilish” (Uncovering Misrepresentations) deb nomlangan asarlar tafsiri super sharh sifatida qabul qilinadi. [18;47-48] Shihadeh Tusiyning bu boradagi tafsirini tilga olmaydi lekin ehtimol uning “Ishoralardagi muommolarga yechim” (Hall mushkilot al-Isharat)<sup>1</sup> asari ham tafsiri super sharh turkumiga kiradi. [2;10]

Postklassik davrdagi sharhlar bo'yicha Visnovskiy va Shihadehlardan tashqari Van Lit ham ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotchi Van Lit o'z tadqiqotlarida “sharplash” va “sharplash an'anasi” atamalarini qo'llashda ko'proq nazariy asos va analitik izchillikni talab qiladi va bu tushunchalarning tarifiga ilmiy tadqiqotlarda deyarli e'tibor berilmayotganligini tanqid qiladi.

Van Lit “boshqa manbaga ishora qilgan matn” (*sharh*) va “manba matni” (*matn*) deb atagan tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarga qaraganda matnning qamro'vi va funksiyasiga kamroq e'tibor qaratadi va tafsir sharhlaridan tashqari izoh (*hoshiya* yoki *taliqa*), hukm (*muhokama*) xulosa (*muhtasar* yoki *mulahhas*), she'r yozish (*nazm*), tarjima (*tarjama*) va taqriz (*taqriz*) shuningdek risola deb atalishiga loyiq bo'limgan matnlarni o'z ichiga olgan sharh matnlarini ham yanada kengroq tushunishni talab qiladi. [19;13] (“Matn” deganda Van Lit “har qanday yozma fikrni: hoshiyadagi qoralamadan yuzlab sahifalarni qamrab oluvchi voqeа-hodisalargacha” degan fikrni nazarda tutadi.) [19;13]

Van Lit sharhlarda o'ziga hoslik masalasiga qisqacha to'xtalib o'tgan bo'lsada, Ahmad sharh va izohlarni tadqiq qilishda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi savollarni taqdim etgan va falsafiy fikrlar rivojiga hissa qo'shadigan sharh va izohlarning ayrim xususiyatlarini ta'riflab bergan. Uning mulohazalari sharhning manba matnidagi falsafiy argumentni qanday muhokama qilish, sharhlovchi nima uchun manba matnining o'ziga hos qismlarini tanlaganligi, sharhda qaysi mualliflar va matnlar ahamiyatli, muhim sifatida keltirilganligi, sharhning o'xshash mazmundagi sharhlarga qanday aloqasi borligi va qaysi ma'noda sharhlovchini sharhda keltirgan fikrlarning asl muallifi deb hisoblash mumkin kabi savollarga turtki bo'ladi. [20;319-20] Sharhlarning yangilikka turtki beradigan xususiyatlariga kelsak, Ahmad birinchi

<sup>1</sup> Ma'lumot uchun: Nosiruddin Muhammad ibn Muhammad ibn al-Xasan at-Tusiyning “Ishoralardagi muommolarga yechim” asarining qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fo'ndida 2065 inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma milodiy 1271 – yil 21- iyunda kotib Axmad ibn Muhammad al-Banokatiy tomonidan arab tili, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. Qo'lyozma 270 sahifani tashkil etadi.

navbatda o'tmishdagi avlodlar baxslarini qayta shakllantiradigan, eskirgan taqlid mashg'ulot bo'lishidan ko'ra, sharhlar va izohlar jonli va intellektual masalalar haqida gapirishni takidlaydi. Shunday qilib, biz ularni nafaqat diaxronik (tilning rivojlanishi bilan bog'liq) sharh an'anasida balki ularni vujudga kelishini sinxron, mahalliy konteksida ham tekshirishimiz kerak. Ushbu dinamikani hisobga olgan holda sharhlovchi maqsadli ravishda manba matnining o'ziga xos konteksida ularning bog'liqligi sababli izoh berish uchun alohida bo'limlarni tanlaydi. Mahalliy sharhlar nafaqat sharhlash uchun manba matnining qaysi bo'limlar tanlanganligini balki bir xil mazmundagi ikkita (yoki undan ortiq) sharhlarning matnlar oralig'ini ham ko'rsatishi mumkin (masalan birinchi darajali, ikkinchi darajali super sharh va boshqalar). Sharhga oid jarayonning o'ziga kelsak Ahmadning ta'kidlashicha u innovatsiyaga olib kelishi mumkin, chunki uning muhim tarkibiy qismi manba matnidagi bo'shliqlarni to'ldirish va undagi baxs-munozaralarni eng ishonchli va tejamkor shaklga qadar yanada shakllantirish hisoblanadi. Manbada uchragan fikrlarni yoqlash yoki tanqid qilish ham huddi shunday baxs-munozarada innovatsiyaga olib kelishi mumkin.<sup>1</sup>

O'ziga xoslik masalasi birinchi darajali sharhlarga nisbatan qo'llanilganda ko'rindigan darajada murakkab emas. Har qanday sharhning ko'rinishi – xoh sharhlash yoki izohlash, batafsil tushuntirish, qisqartirish, perefraza bo'lsin – o'z-o'zidan asl muallifning asl fikrlarini anglatadi. Sharhlovchi manba matnining bir qismini tushuntirish uchun ajratib olganda u matnning bu qismi haqidagi o'z tushunchasini qo'llaydi, mavjud bo'lgan konteksni eslatib o'tmaydi. Ehtimol sharhlovchi ish olib borayotgan mahalliy konteks, uning manba matnini tushunishining ba'zi jihatlari va o'z oldiga qo'ygan maqsadi asl muallifnikidan farq qiladi, bu sharhni muallifning yangi, o'ziga xos xatti-xarakatiga aylantiradi. (Tusiy Ibn Sinoning al-hikma l-muta'aliya neologizmini qanday tushunishi bunga yorqin misoldir.) [2;12]

Biz faqat muallifning maqsadidan uzoqlashgan, mavhum tushunchalar, g'oyalar bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Shuningdek asarda yangi yoki o'zgartirilgan g'oyalarni o'rganayotganda muallifning maqsadiga, u takidlangan yoki yashirin nazardautilgan bo'lsin, e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Muallifning maqsadini tahlil qilish bizni mafkuraviy yo'naliш va ijtimoiy-siyosiy konteksga olib boradi, bu uning yangi g'oyalarni kiritish yoki eskilarini qayta shakllantirishdan darak beradi. Shuning uchun biz sharhlarni haqiqiy bo'limgan va arzimas ilmiy tadqiqot sifatida e'tiborsiz qoldira olmaymiz.

Bir qarashda muayyan supersharhlarga murojaat qilinganda o'ziga xoslik masalasi biroz murakkabroq ko'rindi. Bu yerda biz hukm chiqarish (muhokama) ning subjanrini nazarda tutyapmiz, chunki ikkita hukm chiqarishga oid sharh tadqiqotning

<sup>1</sup> Izoh: Bular Ahmad tilga olgan xususiyatlarning faqat bir qismi, to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Ahmad Asad "Postklassik falsafiy sharhlar/izohlar", 345-46 betlar.

ajralmas qismidir. Tustariy<sup>1</sup> va Taxtaniy<sup>2</sup> sharhlarining uslubi va shakli biroz farq qilsada (bu haqda Maykl Rapoport “The Life and Afterlife of the Rational Soul: Chapters VIII-X of Ibn Sina’s Pointers and Reminders and Their Commentaries” nomli doktorlik dissertatsiyasida batafsil ma’lumot berib o’tgan) ular Tusiy tafsifidan olingan iqtibos va perefrazalarga tayanadi, bu holat Maykl Rapoport tadqiq qilgan Tustariy va Taxtoniy sharhlarining har bir bo’limini qamrab oladi. Maykl Rapoport tadqiqotlarida Tustariy va Taxtaniylar Tusiy tarafdoi va Fahriddin Roziyga qarshi pozitsiyada ekanligi yaqqol namoyon bo’ladi. “Men ko’rib chiqqan biron ta bo’limda ham Roziyning fikr-mulohazasi to’g’ri yoki undan yaxshiroq dalil borligiga aniqlik kiritmaydi. Ko’p holatlarda Tusiyning sharhida ko’chirilgan jumla va g’oyalarni qamrab olgan edi” [2;13] deb xulosa qiladi Rapoport (Xususan, ular ba’zan Roziydan ham jumla va tushunchalarni o’zlashtirib olishar lekin uni rad etar va umuman uni fikrlariga qo’shilmas edilar.) Agar bu sharhlarda uchraydigan fikrlar va ularni ifodalashda foydalananilgan til asosan manba matnlari biridan kelib chiqqan bo’lsa, qaysi ma’noda Tustariy yoki Taxtaniylarni asl muallif deb aytishimiz mumkin? Albatta tafsirga oid sharhning muallifi ma’lum bir parchani asl muallifning fikridan (tushunchasidan) farq qiladigan tarzda tushunishi mumkin. Asosiy sharhlarda bo’lgani kabi biz ham o’ziga hos noaniq va shaklga solinmagan qarashlarni muallifga hos maqsadlarga qo’shish masalasi ustida bosh qotirishimiz kerak. Muhokama muallifining maqsadiga tayanib sharhlovchining ma’lum bir parchani keltirishdagi maqsadi asl muallifnikidan farq qilish ehtimoli ham mavjud. Bunday holat asosan muhokama sharhlovchisi bir muallifni qo’llab, boshqasidan ayb qidirishni maqsad qilganda sodir bo’lishi mumkin. Vanihoyat muhokama sharhi yozilgan mahalliy konteks va u ko’rsatadigan jonli munozaralar albatta asl ijod namunasidan qaysidir ma’noda ajralib turadi. Bu kontekslarning, xususiyatlarning har biri sharh muallifida original fikrlarni paydo qiladi. Zamonaviy olimning vazifasi nafaqat bu fiklarni, g’oyalarni aniqlash va o’rganish balki muallifning ularni qo’llashdagi maqsadiga e’tibor qaratish, u qanday maqsadda bunday qilganligini tushunishdir.

### **Xulosa va takliflar.**

Sharhlovchining manba matnini aslan tushunishi juda yaxshi bo’lishi mumkin, shu bilan birga manba matniga sharh berishdan asl maqsadi hech qanday ahamiyatli

<sup>1</sup> Ma’lumot uchun: Ash-Shams at-Tustariy nomi bilan tanilgan Muhammad ibn Abdulla al-Bag’dodiyning “Ishoralarga sharh” (شرح الاشارات) asarining qo’lyozma nusxasi O’zR FA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fo’ndida 3201 inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo’lyozma milodiy 1333 – yil 21- yanvarda arab tili, nastaliq yozuvida ko’chirilgan. Ash-Shams at-Tustariy mashxur tabib bo’lgan.

<sup>2</sup> Ma’lumot uchun: Qutbiddin ibn Muhammad ar-Roziy at-Taxtaniyning “Al-Imom va al-Nosir o’rtasidagi muhokama” (المحاكّات بين الإمام والنصير في شرح الاشارات) asarining qo’lyozma nusxasi O’zR FA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fo’ndida 2433 inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo’lyozma Hindistonda arab tili, nastaliq yozuvida ko’chirilgan. Sanasi ko’rsatilmagan (taxminan XVII asr). 174 sahifadan iborat.

falsafiy o'ziga hoslikni keltirib chiqarmasligi ham mumkin. Muallif manba matnida uchragan argumentlar va qarashlarni falsafiy innovatsion usulda takomillashtirish, qayta ko'rib chiqish yoki tadbiq etish mumkin emas. "VI va VII boblarda ko'rib turganimizdek bu Tustariy va Taxtaniylarning hukmiy sharhlari "Ishoralar" ning VII-IX boblariga nisbatan ko'proq ko'rindi. Biroq bu matnlarni o'rganish uchun vaqtimizni va kuchimizni sarflashga arzimaydi degani emas, biz faqat ularga to'g'ri savollar berganimizga ishonch hosil qilishimiz kerak." [2;14] Bu asarlar muayyan falsafiy va teologik masalalar bo'yicha jonli, mahalliy munozaralar haqida so'zlaydi, ma'lum bir mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy kontekslardan kelib chiqqan munozaralar faktlarga asoslangan va mazmunli o'ziga hoslikka olib kelishi mumkin. Tustariy va Taxtoniy asarlarining katta qismi Tusiydan ko'chirilgan bo'lsada, bu hukmlar hech qanday ahamiyatga ega bo'lmasligi kerak. Ibn Sino "Ishoralar"ni yozganidan buyon o'tgan qariyb ming yil ichida 30 dan ortiq sharhlarning (barcha turdag'i) yozilishiga sabab bo'lgan bu asarga nisbatan shu soha vakillari o'rtasidagi doimiy qiziqishni saqlab qolish uchun yetarli bo'lmaydi. Bu asarlarning markazidagi masalalar, ular yaratilgan davrda ham o'ziga xos jozibadorlikka ega bo'lgan bo'lishi kerak. Shunday qilib yozilgan sharhlar mutafakkirlar va olimlarning ijtimoiy tarixi uchun qimmatli manbalar sifatida xizmat qilishi mumkin, g'oyalar, qarashlarning transformatsiyasi va falsafiy hamda teologik tadqiqotning borgan sari o'zaro aloqador sohalari haqida esa gapirmasa ham bo'ladi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'lish mas'uliyati. <http://uza.uz/posts/56030>
2. Murojaat sanasi: 21.04.2017.
3. Rapoport, Michael. A. The Life and Afterlife of the Rational Soul: Chapters VIII-X of Ibn Sina's Pointers and Reminders and Their Commentaries: Doctor of philosophy. ... diss. - Yale University, 2018. – 500 p.
4. Griffel, Frank. "Al-Ghazali's (d. 1111) Incoherence of the Philosophers." In The Oxford Handbook of Islamic Philosophy, edited by Khaled El-Rouayheb and Sabine Schmidtke. Oxford Handbooks Online. New York, NY: Oxford University Press, 2016.- p. 191-210.
5. Heer, Nicolas. "Al-Razi and al-Tusi on Ibn Sina's Theory of Emanation." In Neoplatonism and Islamic Thought, edited by Parviz Morewedge, 111-25. Studies in Neoplatonism 5. Albany: State University of New York Press, 1992.

6. Frank, Richard M. Al-Ghazali and the Ash'arite School. Duke Monographs in Medieval and Renaissance Studies 15. Durham, N.C: Duke University Press, 1994.
7. Frank, Richard M. Creation and the Cosmic System: Al-Ghazali and Avicenna. Abhandlungen der Heidelberger Akademie der Wissenschaften, Philosophisch-historische Klasse. Heidelberg: Winter, 1992.
8. Shihadeh, Ayman. "Al-Raz's (d. 1210) Commentary on Avicenna's Pointers: The Confluence of Exegesis and Aporetics." In The Oxford Handbook of Islamic Philosophy, edited by Khaled El-Rouayheb and Sabine Schmidtke. Oxford Handbooks Online. New York, NY: Oxford University Press, 2016. – p. 296-326.
9. Umarov, M. L. (2022). Nosiruddin Tusiyning gnoseologik va mantiqiy qarashlari hamda mazkur masalalarga muallif asarlaridan misollar. Academic Research in Educational Sciences, 3(9), 139-141.
10. Umarov, M. L. (2022). Nosiruddin Tusiy qarashlarida borliq masalasiga munosabat. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 722-726.
11. Umarov, M. L. (2021). Nosiriddin Tusiyning hayot yo'li va ma'naviy merosi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8).
12. Wisnovsky, Robert. "Avicenna's Islamic Reception." In Interpreting Avicenna: Critical Essays, edited by Peter Adamson, 190-214. Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
13. Lameer, Joep. (2013). "Towards a New Edition of Avicenna's *Kitab al-isharat wa-l-tanbihat*" Journal of Islamic Manuscripts 4, no. 2, 199-248.
14. Gutus, Dimitri. Avicenna and the Aristotelian Tradition: Introduction to Reading Avicenna's Philosophical Works. Second, Revised, and Enlarged Edition, Including an Inventory o f Avicenna's Authentic Works. Islamic Philosophy, Theology, and Science, v. 89. Boston: Brill, 2014.- p. 617.
15. Wisnovsky, Robert. "Essence and Existence in the Eleventh- and Twelfth-Century Islamic East (Masriq): A Sketch." In The Arabic, Hebrew and Latin Reception o f Avicenna's Metaphysics, edited by Dag Nikolaus Hasse and Amos Bertolacci, 27-50. Scientia Graeco-Arabica, Bd. 7. Berlin; New York, N.Y: De Gruyter, 2012.
16. McGinnis, Jon. "Nasir al-Din al-Tusi (d. 1274): Sharh al-Isharat." In The Oxford handbook of Islamic philosophy, edited by Khaled El-Rouayheb and Sabine Schmidtke. Oxford Handbooks Online. New York, NY: Oxford University Press, 2016.-p. 326-348.
17. Saifnazarov, I., Muxatarov, A., Sultonov, T., Nazarov, N., Rahimbabayeva, N., Doniyorov, X., Usmonov, F. Falsafa. Darslik. – Toshkent.: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti", 2021. – 424 b.

18. Wisnovsky, Robert. (2013). Avicennism and Exegetical Practice in the Early Commentaries on the Ishara. *Oriens* 41, no. 3-4, 349-78.
19. Shihadeh, Ayman. (2016). Doubts on Avicenna: A Study and Edition of Sharaf al-Din al-Mas'udi's Commentary on the Isharat. *Islamic Philosophy, Theology and Science. Texts and Studies* 95. Leiden, Boston: Brill. - p.44-49.
20. Lit, L. W. C. (Eric) van. (2017). Commentary and Commentary Tradition.” MIDEO. *Mélanges de l’Institut dominicain d’etudes orientales*, no. 32, 3-26.
21. Ahmed, Asad Q. “Post-Classical Philosophical Commentaries/Glosses: Innovation in the Margins.” *Oriens* 41, no. 3—4 (2013): 317-348.
22. Ал-Розий, Фахриддин. *Шарх аль-Ишарат ва-л-манбихат*. ЎзР ФА Шарқшунослик институти, И nv: 4957/1, 16-18б. (араб тилида).
23. Ал-Розий, Фахриддин. *Шарх аль-Ишарат ва-л-манбихат*. ЎзР ФА Шарқшунослик институти, И nv: 4957/2, 18a-271б. (араб тилида).
24. Umarjonov, S. (2022). Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy asarlarining qisqacha sharhi. *Imom Buxoriy saboqlari*, 1, 24-25.
25. At-Tusiy, Nosiruddin Muhammad ibn Muhammad ibn al-Xasan. *Hall mushkilot al-Ishorat*. O’zR FA Sharqshunoslik instituti, Inv: 2065, milodiy 1271. (arab tilida).
26. At-Tustariy, Muhammad ibn Abdulla al-Bag'dodiy. *Sharh al-Ishorat*. O’zR FA Sharqshunoslik instituti, Inv: 3201, milodiy 1333. (arab tilida).
27. At-Taxtaniy, Qutbiddin ibn Muhammad ar-Roziy. *Al-Muhokama baynal-Imam val-Nasir*. O’zR FA Sharqshunoslik instituti, Inv: 2433, taxminan XVII asr. (arab tilida).